



## **World Conference on Social Sciences, Law and Public Policy**

Hosted Online from Toronto, Canada

Date: 26<sup>th</sup> June 2026

Website: <https://econferencia.com>

---

### **XAYRIDDIN SULTON IJODIDA ANDISHA KONSEPTI**

Abdullayeva Gulmira

tayanch doktoranti

Jizzax davlat pedagogika universiteti

#### **Annotatsiya:**

Ushbu maqola Abdulla Qodiriyning “O`tgan kunlar” romani va adib haqidagi Xayriddin Sultonning “Andisha” nomli maqolasida berilgan fikrlar asosida yozildi. Unda Qodiriy ijodining milliy va umuminsoniy qadriyatlar tizimiga ta`siri o`rganib chiqildi. Ijodkor andisha tushunchasini o`zbek milliy mentalitetining asosiy mezon sifatida talqin qiladi. Shu bilan birga, tezisda so`z san`atining ma`rifiy vazifasi, asarlarda oilaviy mojarolarning tasviri va zamonaviy ommaviy madaniyatdagi yuzakilik holatlari qiyoslanib tahlilga tortilgan.

**Kalit so`zlar:** andisha, qadriyatlar, oila, ommaviy madaniyat, germenevtik metod, mentalitet, “O`tgan kunlar”, vijdon, ma`rifiy ruh, ziddiyat

Abdulla Qodiriy asarlaridagi milliy va umuminsoniy qadriyatlar juda ko`plab ijodkorlar qatori Xayriddin Sulton ijodiga ham sezilarli ta`sir ko`rsatgan. Insonparvarlik, oqibat, vijdon, fidokorlik, ota-onaga hurmat, vatanparvarlik, muhabbat va sadoqat kabi tushunchalar har ikki ijodkor asarlarining konseptual asosini tashkil etadi. Ijodkorning “Andisha”, “Shoirona va darvishona bir ma`no” nomli maqolalari, “Ra`no gulining suvi” nomli hujjatli hikoyasi va ijodkorning eng sara asarlari sirasiga kiruvchi “Yaldo kechasi” nomli romanidan ham bilnadiki, yozuvchining A.Qodiriyga ixlosi baland bo`lib doimo uning asarlaridan ilhom, ma`naviy ozuqa olgan. Shu tufayli yozuvchi uchun Qodiriy



## **World Conference on Social Sciences, Law and Public Policy**

Hosted Online from Toronto, Canada

Date: 26<sup>th</sup> June 2026

Website: <https://econferencia.com>

ijodini o‘zbek romanchiligining yuksak namunasi emas, balki inson ruhiyatini anglashning badiiy maktabi sifatida ijodiga singdira bilgan.

Ijodkor “Andisha” maqolasida “O‘tgan kunlar” qahramonlarini tahlil qilar ekan, uni xalqimiz orasida mashhur va sevimli asar holiga kelishining asosiy sababi sharqona andisha konseptini bosh mezon sifatida tutganligida, “adib ijodining shox tomirlari ana shu noyob his-tuyg‘udan kuch-quvvat ol”ganligida deb hisoblaydi. Qodiriy ijodining mohiyatini aynan “andisha” konsepti orqali sharhlaydi va uni o‘zbek milliy tafakkurining estetik-me‘yoriy kategoriyasi darajasiga ko‘taradi. Maqolada andisha oddiy axloqiy me‘yor emas, balki xalqning milliy identiteti, ma‘naviyati, ruhiyati va estetik tafakkurini birlashtiruvchi badiiy konsept sifatida izohlagan. Bu asarlarda qahramonlarning xulqi bilan birga adibning kamsuqum, kamtarinligi ham ko‘zga tashlanib turishini ta‘kidlab “O‘tgan kunlar” va “Mehrobdan chayon” romanlarini “andisha bilan bitilgan kitoblar” deya ta‘riflaydi. Xalqimizning ming yillik axloqiy qadriyatlarini hisoblanmish uyat, andisha, or-nomus kabi tushunchalarni Qodiriy romanlarining ma‘naviy ustunlari ekanligiga alohida urg‘u beradi.

Xayriddin Sulton yuqoridagi fikrlarga qo‘shimcha ravishda Qodiriyning axloqiy jihatdan ayrim voqealarni asarga kiritishni lozim topmaganini, kitobxonlardan andisha qilganini ta‘kidlaydi. O‘tgan kunlar hikoyalarini otasidan jon qulog‘i bilan tinglaydigan yosh Qodiriy Kumush va Zaynab o‘rtasidagi mojarolar joyinigina zerikarli deb hisoblab kitobxonning ham kundoshlik munosabatlari-yu janjallar haqida o‘qib qimmatli vaqtini ketkazishini istamaydi, u hatto “qalamni ham bu g‘idi-bididan ozod qilishni muvofiq ko‘radi”. Yuqoridagi mulohazalari orqali ijodkor Abdulla Qodiriyning badiiy mahoratini emas, balki ijodkor axloqini ham alohida qadriyat sifatida talqin qiladi. Adib nazarida san‘at odamlarini ma‘naviy yuksaltirishga xizmat qilishi kerak, shu sababli u oilaviy mayda tortishuvlar, kundoshlik mojarolari yoki maishiy janjallarning asar



## **World Conference on Social Sciences, Law and Public Policy**

Hosted Online from Toronto, Canada

Date: 26<sup>th</sup> June 2026

Website: <https://econferencia.com>

markazida bo`lishini ma`qullamaydi. Qodiriyning “qalamni ham bu g`idi-bididan ozod qilish” haqidagi qarashi aslida adabiyotning estetik va tarbiyaviy mezonlarini belgilovchi muhim omildir. Ayrim filmlar va seriiallarda kelin-kuyov yoki qaynona-kelin munosabatlari asosiy syujetga aylanib qolmoqda. Bunday asarlarda inson ruhiyati, ma`naviy kamoloti va milliy qadriyatlarning teran talqini emas, balki tomoshabinni hissiy keskinlik bilan ushlab turishga qaratilgan yuzaki konfliktlar ustunlik qiladi. Natijada badiiy tafakkur o`rnini sun`iy dramatism, ma`rifiy ruh o`rnini esa yengil va saviyasiz tasvirlar egallaydi. Oqibatda esa milliy mentalitetga xos andisha, hayo, oila muqaddasligi kabi tushunchalarning badiiy qadri pasayishiga olib keladi. Zero, o`zbek adabiyoti an`analarida insoniylik, sabr, muhabbat va oilaviy qadriyatlar mezonlari orqali yoritib kelingan. Milliy adabiyot va san`atning asl maqsadi insonni arziyas mojarolar domiga tortish emas, balki uni ruhiy va axloqiy jihatdan yuksaltirishdan iboratdir. “Andisha” matbuotda e`lon qilinganida ustoz adabiyotshunoslarimiz “O`tgan kunlar” romani tahlilining yangicha yondashuvdagi adib mahoratini kashf etish tajribasi, deya ta`rif bildirdilar...germenevtik tahlilning teran bir namunasini taqdim etib, qodiriyshunoslik rivojiga jiddiy turtki berdi.”<sup>1</sup> Asarning ichki mohiyatini, ijodkor dunyoqarashi, tafakkuri va konseptual qatlamlarni chuqur anglashimizga ko`mak beruvchi germenevtik metod yordamida ijodkor yashirin ma`nolarni chuqur tahlil qila bilgan. Ijodkorning fikriga ko`ra Abdulla Qodiriy va qahramonlarining nazdida insonlar andishali va andishasiz nomli ikki toifa bo`lingan. Ular uchun “andishasiz” yoki “uyatsiz” so`zlari eng og`ir haqorat so`z hisoblangan. Homid uyushtirgan tuhmatlarga qolib ketgan Otabekka nisbatan Qutidor, Oftob oyim va Kumushbibining “uyatsiz” deb atashlari yoki ikkinchi turmushni qabul qilmagan Kumush sababini o`zi sevgan insonda shunchalar uyatsizlik ko`rganini sabab qilishi, kirdikorlari fosh bo`lgan Homidga nisbatan

<sup>1</sup> Sultonov X. “Haqiqat jamoli”. – T.: “Mashhur-press”, 2019. – B. 8.



## **World Conference on Social Sciences, Law and Public Policy**

Hosted Online from Toronto, Canada

Date: 26<sup>th</sup> June 2026

Website: <https://econferencia.com>

Oftoboyimning “Uyatsiz” deya xitob etishi milliy tafakkurda “uyat” va “andisha” tushunchalarining naqadar yuksak mezon boʻlganligini koʻrsatadi. Shu oʻrinda Homid va Otabekka nisbatan qoʻllangan bu soʻzlarda qahramonlarning ichki ziddiyatlari, qalb iztiroblarini yada teran his etish mumkin, Otabekka shu soʻzlarni aytganda oila aʼzolari oʻz oʻgʻlidek aziz va sevimli insonlaridan bu holatni ravo koʻrishdagi qalb ogʻrigʻi ifodalangan boʻlsa, Homidga nisbatan kuchli nafrat va axloqiy hukm ustuvorlik qilgan. “Bir donishmand uyatni «vijdonning sirtqi koʻrinishi» debdi. Demak, uyatsizlik bilan beadablik, beadablik bilan axloqsizlik, axloqsizlik bilan jinoyatkorlik orasida qalin devor yoʻq, bularning har biri vijdonsizlikning turli bosqichidir. Modomiki shundoq ekan, uyatni jamiyatimizni balo-qazodan saqlaydigan buyuk posbon deyish mumkin.”(Abdulla Qahhor)<sup>2</sup>

Xayriddin Sulton andishani faqat ijtimoiy odob emas, balki inson ruhiyatining eng nozik qatlamlariga daxldor maʼnaviy hodisa sifatida talqin qiladi. Ayniqsa, Kumush, Otabek, Yusufbek hoji kabi obrazlar misolida bu konseptning turli qirralari ochib beriladi. Kumushning qaynotasi va qaynonasiga munosabatidagi hurmat, sabr, ichki iztirobni oshkor qilmaslik holatlari sharqona andishaning badiiy ifodasidir. Otabekning oilaviy ziddiyatlarda ham odob chegarasidan chiqmasligi milliy tarbiya va maʼnaviyatning ifodasiga aylanadi. Bu jihatlar orqali yozuvchi Qodiriy qahramonlarini oddiy personaj emas, balki milliy axloq va mentalitetimiz ruhiyati tashuvchisi sifatida talqin qiladi. Xayriddin Sulton talqinidagi andisha konsepti milliy ildizga ega boʻlsa-da, insoniyat uchun umumiy va muhim axloqiy-estetik qadriyat sifatida namoyon boʻladi.

<sup>2</sup> <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/matbuot/sovet-davri-matbuoti/abdulla-qahhor-uyat-1966>



## **World Conference on Social Sciences, Law and Public Policy**

Hosted Online from Toronto, Canada

Date: 26<sup>th</sup> June 2026

Website: <https://econferencia.com>

---

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sultonov X. “Haqiqat jamoli”
2. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/matbuot/sovet-davri-matbuoti/abdulla-qahhor-uyat-1966>
3. “O`zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi, 1989-yil, 8-dekabr